



# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023-YIL YANVAR - NOYABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-203-88-07

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023-yil yanvar – noyabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar – noyabr oylarida shahar korxonalarini tomonidan 109,0 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar – noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,0 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 90,5 trln. so'mni tashkil etdi.




*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

### **Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da**




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 19,7 % ga, Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 2,0 % ga, o'sishi kuzatildi Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 32,3 % ga pasayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,1 so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 13,0 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar – noyabr oylarida, % da)



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




**Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari     | 2022-yil yanvar - noyabr | 2023-yil yanvar - noyabr | Farqi +/- |
|-------------------------|--------------------------|--------------------------|-----------|
| Neft, ming t.           | 613,6                    | 607,6                    | -6,0      |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 32 714,7                 | 29 825,2                 | -2889,5   |
| Gaz kondensati, ming t. | 667,8                    | 595,6                    | -72,2     |
| Chaqiq tosh ming t.     | 12,2                     | 364,8                    | 352,6     |


Shagʻal t.

**Ishlab chiqaradigan sanoat**




2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 90,5 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,0 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar – noyabr oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,2% ni (2022-yilning yanvar – noyabr oylarida – 7,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,4 % (21,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 32,4 % (29,5%) va quyi texnologiyalisi – 39,9 % (41,9%)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalari ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,5 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 14,4 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,8% (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,2 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,7 % (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,6 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2023-yilning yanvar – noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 128842,0 tonna Yumshoq bug'doy va spelta uni mahsuloti (4,2 marta ga oshgan), 216,6 tonna daftarlilar (82,7% ga oshgan), 2675,8 tonna paketlar va paketlarni qadoqlash (31,3 %) va hamda 1059,8 ming kv.metr gilam va gilamlar mahsulotlari (29,2%) ishlab chiqarilishi o'sganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

O'simlik yog'il  
(tozalangan)



Margarin va yormalar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Pivo




Aroq



Uzum vinosi



Tamaki mahsulotlari



Paxta kalavasi




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| <b>Sanoat mahsulotlari</b>  | <b>2022-yil<br/>yanvar - noyabr</b> | <b>2023-yil<br/>yanvar - noyabr</b> | <b>Farqi<br/>+/-</b> |
|---|-------------------------------------|-------------------------------------|----------------------|
| <b>Yumshoq bug'doy va spelta<br/>uni, ming tonna.</b>                       | 31,0                                | 128,8                               | 97,8                 |
| <b>Paxtadan yigirilgan ip, ming<br/>tonna.</b>                              | 31,9                                | 31,7                                | -0,2                 |
| <b>Margarin va yormalar tonna.</b>  | 6112,9                              | 3180,4                              | -2932,5              |
| <b>Pivo – mln litr</b>  | 73,9                                | 115,9                               | 42,0                 |
| <b>Traktorlar - dona</b>  | 67,0                                | 11,0                                | -56,0                |
| <b>Sovutgich va muzlatgichlar -<br/>ming dona</b>                           | 676,5                               | 624,6                               | -51,9                |
| <b>Akril va vinil polimerlari<br/>asosidagi bo'yoqlar va<br/>laklar, t.</b> | 14911,0                             | 15568,0                             | 657,0                |
| <b>Tamaki mahsulotlari,<br/>mln. dona</b>                                   | 1739,0                              | 2002,1                              | 263,1                |

## Metallurgiya sanoati (yanvar – noyabr oylarida)



FHI  
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 12,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,3 ga kamaygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 14,4 % ni tashkil qilib, fizik hajm indeksi esa, 130,8 va ishlab chiqarish hajmi 15640,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (yanvar – noyabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 13,1 % ga kamaygan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 113,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 4313,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI  
% da






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – noyabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 113,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,2 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,1 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 11066,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – noyabr oylarida)

**FHI**  
**% da**




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 66,1 % ga oshgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar – noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 10596,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – noyabr oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 95,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar – noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 4,3 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4427,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar – noyabr oylarida)




2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 96,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 99,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1664,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar – noyabr oylarida)

2022-yilning yanvar - noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 117,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 10,6 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 3508,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - noyabr oylarida)




2022-yilning yanvar– noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 133,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 53,2 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 359,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar - noyabr oylarida)

FHI  
% da



2022-yilning yanvar – noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirka-malar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3% ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 115,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oyilarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 107,7% ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 4510,0mlrd.so‘m-ni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar - noyabr oylarida)

2022-yilning yanvar - noyabroylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 124,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar - noyabroyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi 108,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3817,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




FHI  
% da



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar – noyabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,5 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,3 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar – noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 32,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar - noyabr oylarida, % da)



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari            | 2022-yil yanvar-noyabr | 2023-yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|--------------------------------|------------------------|------------------------|-----------|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s     | 1193,2                 | 3632,7                 | 2439,5    |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 10708,5                | 9164,8                 | -1543,7   |

Elektroenergiya uzatish  
bo'yicha xizmatlar, mln so'm.


812,4

878,5

66,0

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar - noyabr oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar –noyabr oylarida, % da)




| Sanoat mahsulotlari   | 2022-yil<br>yanvar-noyabr | 2023-yil<br>yanvar-noyabr | Farqi<br>+/- |
|---|---------------------------|---------------------------|--------------|
| Oqova suvlarni yo'qotish,<br>transportirovka qilish va ishlov berish<br>bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm | 151,0                     | 169,1                     | 18,1         |
| (Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik)<br>kimyoviy, tonna  | 336,2                     | 254,9                     | -81,3        |
| Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va<br>ta'minlash, mlrd. so'm  | 238,1                     | 298,6                     | 60,5         |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 5,7 % ga , oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov

berish bo'yicha xizmatlar 12,0 % ga , tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 25,4 % ga, o'sish kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 34,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 39,4 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,1 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi  
tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
*(2023-yil 1 dekabr holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,9 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida 1385 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*